



## IJTIMOIIY TARMOQLAR ORQALI MANIPULYATSIYA QILISH USULLARI

**Jamolova Jasmina**

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti  
Teleradio jurnalistikasi yo'nalishi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Axborot asosiy qurol bo'lgan zamonda odamlarning ongi uchun kurash jadallashmoqda. Shu sababli internetda o'qigan, televizorda ko'rgan gaplaringizning hammasiga ham ishonmang. Ular kimningdir foydasiga uyushtirilgan propaganda axboroti, manipulyatsiya yoki shunchaki populizm bo'lishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** Manipulyatsiya, propaganda, axborot, populizm.

Manipulyatsiya – bu o'z manfaati yo'lida boshqalardan foydalanish, ularni boshqarish orqali ularga ta'sir ko'rsatish. O'z manfaati uchun sizdan foydalangan odam manipulyatoridir. Manipulyatorlar oddiy ta'sir o'tkazish va ishontirishdan farqli ravishda shaxsning huquqlarini hurmat qilmaydi hamda uni o'z manfaati uchun ishlashga majburlaydi. Inson psixologiyasi murakkab bo'lib, uning muhim qismini o'y-fikrlar tashkil etadi. Insonning xayoliy dunyosiga tashqaridan osonlikcha ta'sir ko'rsatish mumkin. Bu ta'sir yashirin xarakterga ega bo'lib, insonning o'zi buni ko'pincha payqamaydi. Bu jarayonni manipulyatsiya mexanizmi boshqaradi. Uning yolg'ondan farqi shuki, manipulyator hech qanday yolg'on ma'lumot bermaydi. Aksincha o'sha yolg'on ma'lumot "o'lja"ning miyasiga o'rnashishi uchun yashirin yo'llar bilan harakat qiladi. Misol uchun, agar ko'cha-ko'yda kimdir sizdan A obyektga borish yo'lini so'rasa-yu, siz unga ataylab V obyektga yo'lni ko'rsatsangiz, bu yolg'on. Ammo "Men A obyekt qayerdaligini bilmayman, ammo bu kabi binolar odatda falon tarafda bo'ladi" deb uning miyasiga uqtirsangiz va u o'sha tarafga qarab ketsa, bu manipulyatsiya. Ya'ni biz manipulyatsiya qilishimiz uchun odamning ongostiga yashirin yo'llar bilan ta'sir ko'rsatib, o'z xohishiga ko'ra biror ishni qilishga majburlay olishimiz kerak.

Manipulyatsiyaga misol: birinchi suratda sher o'z bolasini yeyotgandek tasavvur uyg'otadi, aslida esa u bolasini ko'tarib ketmoqda. Quyida ayrim manipulyatsiya turlari keltirilgan:

- gazlayting;
- passiv-agressiv tajovuz;
- tanqid qilish;
- kutilmagan e'tibor;
- xushomadgo'ylik;



viktimbleyming.

Ommaviy axborot vositalari, mediamaydonda ham blogerlar o'z foydasi uchun manipulyatsiyadan foydalanishi mumkin. Ular o'zlariga qulay bo'lgan axborotni o'quvchi miyasiga joylash uchun ma'lumotni aylanib o'tib, uni boshqa tomondan yoritadi. Misol uchun, ikki tomon o'rtasida tortishuv yuzaga kelgan bo'lsa, manipulyatsiya qilmoqchi bo'lgan bloger tomonlardan birini butunlay aybdor sifatida, boshqasini beayb sifatida gavdalantirishi mumkin.

Kollektiv ong sabab odam boshqalarni takrorlaydi. Agar yetarli darajada ko'p odam biror ishni ommaviy ravishda qila boshlasa, boshqalar ham ularga qo'shilishi mumkin. Agar ular jamiyatga ta'siri kuchli inflyuenser bo'lsa, buning ehtimoli ham oshadi. Misol uchun, taxminan 3 oylar avval o'zbek blogosferasidagi mashhur shaxslar lentalarida "Mirshakar malades" jumlasini ommalashtirgandi. Ammo bu so'zlarning konteksti haqida ma'lumot berilmadi. Yakunda bu aslida komik Mirshakar Fayzullayevning shu nomdagi konsert dasturining reklamasi ekani ma'lum bo'ldi. Bu orqali blogerlar ommani Mirshakar Fayzullatevning konsertiga tushishga undadi va yakunda ko'pchilik shu ishni qildi ham.

Ayrim internet faollari ommaga ta'sir ko'rsatish uchun o'zini ulardan biri sifatida ko'rsatib, ularni ta'sirlantiradigan gaplarni yozadi. Siyosatdan doimiy norozi bo'lgan auditoriyaga faqat ular yoqtiradigan axborotlar joylaydi. Masalan, hukumatni o'rinli-o'rinsiz tanqid qiladi. Shu sababli odamlar unga ishona boshlaydi va sekinlik bilan uning ta'sir doirasiga tushib qoladi. Bu kabi shaxslarga troyanlar deyiladi. Ular xuddi Troya oti kabi avval ishonchingizga kiradi, shundan so'ng undan o'z maqsadi yo'lida foydalanadi. Noto'g'ri axborotlar tarqatadi, propaganda, manipulyatsiya qiladi. Misol uchun, Telegram'dagi "Kompromatuzb" kanali avvaliga jamiyat uchun muhim muammolarni yoritishi bilan mashhur bo'ldi. Keyinchalik bu kanal ma'lum bir shaxs va muayyan guruhni doimiy propaganda qilib kelishi, amaldorlarga nisbatan tovlamachilik harakatlarini amalga oshirishi ma'lum bo'ldi.

Ayrim holatlarda ijtimoiy tarmoq faoli ommaga ta'sir o'tkazish uchun ularning ma'naviy va diniy qarashlariga e'tibor qaratadi. Voqeani bo'rttirib ko'rsatib, ommaning fikrini o'zgartirishga urinadi. Shu sababli juda ko'p amaldorlar internetda tarqalib ketgan turli shaxsiy foto va videolari ortidan ishidan ayriladi. Chunki uning lavozimidan ketishini istaydigan shaxslar bu kabi ma'lumotlarni atay jamoatchilikka ochiqalaydi va sharmanda qiladi. Omma esa manipulyatsiya sabab amaldorning kasbiy ko'nikmalariga emas, shaxsiy sifatlariga e'tibor qaratishi mumkin. Andijon shahrining sobiq hokimi Dilmurod Rahmatullayev ham aynan tarmoqda tarqalgan intim suratlari va u sababli yuzaga kelgan norozilik ortidan ishdan ketgandi (<https://daryo.uz/2019/08/26/andijon-shahar-hokimi-dilmurod-rahmatullayev-lavozimidan-ozod-etildi>).



Shahzoda Uilliamning ushbu suratiga e'tibor bering. U aslida qo'l jestlari orqali 3 sonini ko'rsatyapti. Ammo voqeani manipulyatsiya qilayotgan tomon u o'rta barmog'ini ko'rsatayotganini ta'kidlaydi.

Auditoriyaga ta'sir o'tkazishning o'ziga xos vositalari bor. Misol uchun, ratsionalizatsiya va minimizatsiya, ya'ni ratsionalikka va minimallikka imitatsiya, o'xshashga harakat. Ratsionalizatsiyada tarmoq faoli sizga biror bir voqeani o'z tushunchasi bo'yicha izohlayotib, bir qarashda ishonchli ko'rinadigan isbot va asoslar keltiradi. Ammo ratsional o'ylab ko'rilsa, bu fikrlarda hech qanday haqiqat bo'lmaydi. Misol uchun, TikTok ijtimoiy tarmog'ini bloklashni targ'ib qilayotgan odam bu tarmoq orqali yoshlar ongi buzilib ketayotganini, yot kuchlar ta'siriga tushib qolayotganini, ularni begona unsurlardan himoya qilish kerakligini ta'kidlaydi. Ammo TikTok oddiy tarmoq xolos, undagi kontentlarni odamlar yaratadi va odamlar tomosha qiladi. Shu sababli TikTokni bloklash sababga emas, balki oqibatga qarshi kurashish bo'ladi.

Minimalizatsiyada esa biror voqeani oqlab berish uchun u keltiradigan zarar minimallashtiriladi. Masalan, biror kim qizlarning ta'lim olishiga qarshi bo'lsa, bunday minimizatsiya qilishi mumkin: "Ayol kishi universitetga borib nima qiladi, o'qib olim bo'larmidi? Ayollarimiz ming yildan beri uyda bola parvarishi bilan mashg'ul, nima, biror joyimiz kamayib qoldimi?"

### Populizm

Populist – sizni yolg'on va'dalar bilan ishontirib, ularni amalga oshirmaydigan odam. U asoslanmagan va'dalar berish yo'li orqali omma hissiyotlarini bilan o'ynashadi, yolg'on-yashiq gaplar bilan xalq orasida shuhrat qozonishga intiladi. Populizm siyosiy boshqaruvning bir turi bo'lib, hokimiyatga erishishning asosiy vositasi sifatida to'g'ridan-to'g'ri jamoatchilik fikriga, omma kayfiyatiga suyanish usulidan foydalanadi. Populistlar qiyin vaziyatlarda odamlar oldida chiqishlar qiladi, ularni hammasi yaxshi bo'lishiga ishontirib, ta'sir o'tkazadi. Ammo gapdan nariga o'tmaydi. Misol uchun, AQShning sobiq prezidenti Donald Trampning ayrim harakatlarida populistlik alomatlari seziladi. U saylovgacha ijtimoiy tarmoqlar, xususan, Twitter orqali o'zini reklama qildi. Turli va'dalar berib, fuqarolardan unga ovoz berishni so'radi. Ularga yoqadigan o'zgarishlar qilishini aytdi. Ammo prezidentlikka o'tirgach aytganlarini bajarmadi. Shu sababli keyingi saylovlarda yutqazdi. O'zbek siyosatidan misol keltiradigan bo'lsak, Alisher Qodirovda populistlik elementlari ko'zga tashlanadi. Misol uchun, uning "aholining 90 foizini tashkil qiladigan musulmonlarga qilingan ayblovlar" haqida yozgan tviti muhokamalarga sabab bo'lgandi. Andijon viloyati hokimi Shuhrat Abdurahmonovning "sizlarga qopda pul olib keldim" degan populistik jumlasini memlarga aylanib ketgandi. Populist siyosatchilar hamma ko'rib, bilib turgan muammolar haqida xalq nomidan gapiradi. Ular jamiyatni ikkiga ajratadi:



oddiy xalq hamda boy elita. Va o'zlarini xalq vakili sifatida ko'rsatib, odamlarga yoqadigan, ammo islohoti bo'lmagan gaplarni aytishadi.

Populistni aniqlash uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak, agar ushbu belgilar bo'lsa, demak, u populist:

ommani doimiy ulug'lab, uni "mehnatkash", "jafokash", "soliq to'lovchi" kabi so'zlar bilan ataydi;

"xalq irodasi", "demokratiya" kabi quloqqa yoqadigan so'zlarni ko'p takrorlaydi;

oratorlik qobiliyatiga, o'ziga xos gapirish ritorikasiga ega bo'ladi;

yuqori elitani doimiy tanqid qiladi, ularni har narsada aybdor sanab, oddiy odamlarni ularning zulmidan qutqarish kerakligini aytadi.

**Konspirologiya**

Konspirologlar ilm-fan isbotlagan faktga shubha bilan qarab, yozuv kuchlar odamlarni aldayotganini ta'kidlaydi. Konspirologiya (fitna nazariyasi) – umumqabul qilingan bilimlar, bo'lib o'tgan tarixiy voqea va hodisalarga ishonchsizlik, barcha ishlar dunyoni xudbinlarcha boshqaradigan bir guruh yovuz odamlarning qilmishi ekanini aytadigan ta'limot hisoblanadi. Konspirologiya asosan bilimsizlik va fanatizm ortidan kelib chiqadi. Shaxs o'z qo'lida bo'lmagan atrof-muhitni o'rganishga kirishadi va ma'lum nuqtaga yetgach, voqealarni idrok qilolmay qoladi. Shu sababli u dunyoni oddiy odamlar ko'ziga ko'rinmaydigan yashirin guruhlar (yahudiylar, frimasonlar, illyuminatlar, tampliyerlar) boshqarishiga ishona boshlaydi. Konspirologiya nazariyotchilari har qanday shaxsiy to'qnashuvni yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi umumiy kurashning bir qismi sifatida talqin qilib, murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni va g'ayritabiiy kuchlarni shaxslar va kichik guruhlar boshqaradi deb targ'ib qilishadi.

Ko'plab olimlar konspirologiya nazariyasi qoidalariga ishonish aqliy buzilish turlaridan biri deb hisoblaydi. Insonning chuqur ijtimoiy-psixologik ehtiyojlari konspirologiya nazariyasining paydo bo'lishining sabablaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari jamiyatda ijtimoiy tengsizlik hukm sursa, turli mafkuraviy reaksiyalar tarqaladi va konspirologiya gullab-yashnaydi. Ta'lim sifati past darajada bo'lgan, shuningdek, yashash sharoitlari havas qilarli darajada bo'lmagan keng tarqalgan uchraydi.

Global konspiratsiya nazariyalari inqirozli jamiyatlarda ommani manipulyatsiya qilishning samarali vositalaridan biriga hisoblanadi. Konspirologiya nazariyalari jamiyatdagi mavjud holatlardan norozi bo'lganlar tomonidan ko'proq qo'llab-quvvatlanadi.

Konspirologiya ta'siriga tushib qolgan odamlar ko'pincha quyidagi narsalarga ishonishadi:



butun dunyoda hokimiyatni egallash maqsadida yaratilgan noma'lum kuchlar;

moliyaviy inqiroz yoki iqtisodiy qiyinchiliklarni atayin amalga oshiradigan kuchlar;

butun dunyoga zarar yetkazadigan turli biologik qurollarni tarqatadigan guruhlar;

mamlakatdagi yoshlar ongini zaharlash uchun chet el g'oyalarini atayin mamlakatda targ'ib qiluvchi yot kuchlar;

yahudiylar tomonidan tuzilgan va boshqa dinlarga qarshi g'oyaviy urush olib boradigan maxsus tashkilotlar.

Insoniyat oyga chiqqaniga, Yer shar shaklida ekaniga, dinovavrlar yashab o'tganiga va shu kabi ilmiy bilim va yutuqlarga ishonmaydigan konspirologlar ham bor. Ular barcha narsaga shubha bilan qaraydi va har yerdan masonlarning izini qidiradi. Fitna nazariyotchilari, xususan, 9/11 voqealari, prezident Kennedining o'ldirilishi kabi halokatlarni ham aynan yovuz kuchlar tomonidan amalga oshirilganiga ishoniladi.

Koronavirus pandemiyasi paytida bu mazmundagi xabarlar urchidi. Bu kasallik aslida laboratoriyada sun'iy tarzda o'ylab topilgani, bu orqali buyuk kuchlar Yer yuzidagi odamlarning ko'p qismini qirib yubormoqchi ekani haqida xabarlar tarqaldi. Ko'pchilik bunga ishonadi ham. Ular virusni Bill Geyts kabi innovatorlar o'ylab topganiga dalillar keltirdi. Konspirologlar kasallikka qarshi vaksinalardan foydalanishdan bosh tortdi. Vaksinalar orqali inson miyasiga chiplar o'rnatilayotganini iddao qildi. Ammo yakunda bularning birortasi haqiqat bo'lib chiqmadi.

Odamlar manipulyatsiyadan vaziyatni o'z foydasiga o'girish uchun foydalanadi. Holatni biroz bo'rttirib yoki sokinlashtirib ko'rsatish yoki umuman ko'rsatmaslik orqali qandaydir manfaat oladi. Axborot davrida bu vositaga keng qamrovli tarzda murojaat qiladigan tomonlar ham bor. Ular bu orqali mediamaydondagi statusini yaxshilash, ko'proq o'quvchi yig'ish, e'tibor markazida bo'lish uchun foydalanishadi. Misol uchun, 2022-yilning oktabr oyida O'zbekiston Pillachilik va qorako'lchilikni rivojlantirish qo'mitasi raisining o'rinbosari ishdan ketdi. Aslida u o'quvchiga unchalik qiziq bo'lmagan, e'tibordan tashqaridagi qo'mitaning o'rinbosari edi. Biroq uning bir o'z-gacha tomoni bo'lgan – ismi Sherzod Asadov edi. Bu ism hozirda Prezidentning shaxsiy matbuot kotibi vazifasida ishlaydigan odamga ham tegishli. Ya'ni ular ism va familiyasi bir xil bo'lgan ikkita odam edi. Ayrim nashrlar bu holatdan o'z hisobiga foydalangan. Masalan, kun.uz, xabar.uz kabi yirik nashrlar qo'mita raisi o'rinbosari ishdan olingani haqida quyidagicha sarlavha bilan xabar yozgan: "Sherzod Asadov lavozimidan ketdi", "Sherzod Asadov lavozimidan ozod etildi". Bu nega kerak



edi? Chunki bu sarlavhani o'qigan o'quvchi gap mashhurroq siyosatchi, Prezident matbuot kotibi haqida ekan deb o'ylaydi va xabar ichiga kirib uni o'qiydi. Agar "Pillachilik qo'mitasi raisi o'rinbosari Sherzod Asadov ishdan olindi" deyilsa ko'pchilik bu xabarni o'qimasligi aniq, sababi u katta ijtimoiy ahamiyatga ega emas, ammo Prezident bilan bog'liq holatga deyarli hamma qiziqadi. Shuning uchun nashrlar sarlavhada manipulyatsiyaga qo'l urdi va o'quvchilar xabarni to'liq o'qish uchun saytga kirishdi, saytda esa reklamalar joylashgan. Shunday qilib, har bir shunday o'quvchidan OAV pul ishlab olgan.

Shu kabi holatlarda aldanib qolmaslik, manipulyatsiyani obyektiv xabardan farqlay olish, manipulyatsiya qurboni bo'lmaslik, auditoriyaga ta'sir o'tkazish usullari haqida ma'lumot olish, umuman, sizni aldashga urinayotgan xabarni qanday aniqlashni o'rganish uchun ushbu modul bilan yaxshilab tanishib chiqing, ko'rsatmalarga doimiy amal qiling

Axborot asosiy qurol bo'lgan zamonda odamlarning ongi uchun kurash jadallashmoqda. Shu sababli internetda o'qigan, televizorda ko'rgan gaplaringizning hammasiga ham ishonmang. Ular kimningdir foydasiga uyushtirilgan propaganda axboroti, manipulyatsiya yoki shunchaki populizm bo'lishi mumkin. Shubhali, ishonish qiyin bo'lgan axborotga duch kelsangiz, tanqidiy fikrlab ko'ring. Turli manbalarni o'qing, eng obyektiv ko'rinishdakisiga ishoning. Internet manipulyatorlariga aldanib qolmang.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. <https://www.thebehavioralscientist.com/glossary/informational-influence>
2. [https://www.cisa.gov/sites/default/files/publications/information\\_manipulation\\_infographic\\_508.pdf](https://www.cisa.gov/sites/default/files/publications/information_manipulation_infographic_508.pdf)
3. <https://medium.com/illumination/the-psychology-of-mass-manipulation-and-persuasion-a1b37b5253e4>
4. <https://medium.com/change-your-mind/minimizing-and-rationalizing-behaviors-tools-used-by-escape-artists-3fb08dfcdb25>
5. <https://www.verywellmind.com/using-rationalization-as-a-defense-mechanism-7484497>
6. <https://www.bbc.com/news/world-43301423>
7. <https://www.liberties.eu/en/stories/populism/44261>
8. <https://iep.utm.edu/conspiracy-theories/>